



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
Nusharov Bobir Bolbekovich	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
Олимова Азиза Кахрамоновна	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Quدراتulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
Botirova Lobar Kamolovna	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
Ergasheva Nigora Erkinovna	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
Baxramova O'ramol Uralovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
Ergasheva Mehriyona	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



TARBIYACHINING BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH JARAYONIDAGI O'RNI

Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU, "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasida dotsenti (PhD)

Rahimova Umida Abdurasul qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Toshkent shahri
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishdagi pedagogik o'rni va kasbiy mas'uliyati yoritilgan. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda ijodkorlik, estetik did, tasavvur va qo'l motorikasini rivojlantirishda tarbiyachining metodik yondashuvi, kasbiy mahorati, samimiyligi hamda pedagogik nazokati muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqolada mashg'ulotlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda rejalashtirish, an'anaviy va noan'anaviy texnikalardan foydalanish, shuningdek, tarbiyachining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus kompetensiyalarining uyg'unligi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi asosiy omil ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, tasviriy faoliyat, ijodkorlik, estetik tarbiya, pedagogik mahorat, kompetensiya, noan'anaviy texnikalar, pedagogik nazokat, samimiylilik.

Abstract: This article highlights the pedagogical role and professional responsibility of the educator in teaching children visual arts activities in the preschool education process. The importance of the educator's methodological approach, professional competence, sincerity, and pedagogical tact in developing children's creativity, aesthetic taste, imagination, and fine motor skills through visual activities is substantiated. The article emphasizes that planning activities in accordance with age characteristics, using traditional and non-traditional techniques, as well as the harmonious integration of the educator's professional, personal, general cultural, and special competencies are key factors in the comprehensive development of a child's personality.

Key words: preschool education, educator, visual arts activities, creativity, aesthetic education, pedagogical mastery, competence, non-traditional techniques, pedagogical tact, sincerity.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогическая роль и профессиональная ответственность воспитателя в процессе обучения детей изобразительной деятельности в условиях дошкольного образования. Обоснована значимость методического подхода, профессионального мастерства, искренности и педагогического такта воспитателя в развитии у детей творческих способностей, эстетического вкуса, воображения и мелкой моторики посредством изобразительной деятельности. В статье подчёркивается, что планирование занятий с учётом возрастных особенностей, использование традиционных и нетрадиционных техник, а также гармоничное сочетание профессиональных, личностных, общекультурных и специальных компетенций воспитателя являются основным фактором всестороннего развития личности ребёнка.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, изобразительная деятельность, творчество, эстетическое воспитание, педагогическое мастерство, компетенция, нетрадиционные техники, педагогический такт, искренность.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat ularning badiiy-estetik tarbiyasining muhim qismi bo'lib, ijodkorlik, estetik did, tasavvur va qo'l mehnati ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda tarbiyachining o'rni beqiyosdir. Zamonaviy tarbiyachi maktabgacha ta'lim jarayonining markazida turadi. Uning shaxsiy fazilatlarini, tashqi qiyofasi va odobi bolaga namuna bo'ladi. Pedagogning ijtimoiy vazifasi bolalarni nafaqat o'qitish, balki ularni ma'naviy, estetik va ijodiy rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyachi bosh yetakchi hisoblanadi, chunki bola bu davrda eng ko'p vaqtini tarbiyachi bilan o'tkazadi, undan o'rnak oladi va ko'rganini tezda o'zlashtiradi. Shu bois tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bola hayotidagi

ikkinchi ota-ona sifatida ham ko'riladi. Tarbiyachi bolaning kundalik tarbiyasi, odob-axloqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

U pedagogik jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Tarbiyachi shaxsi bolalar uchun doimiy namuna bo'lib xizmat qiladi. Bola ko'rgan narsasini tezda takrorlash xususiyatiga ega, shu sababli tarbiyachining har bir xatti-harakati, nutqi va odobi bevosita bola ongiga ta'sir etadi. Tarbiyachi faqatgina mashg'ulot o'tkazuvchi emas, balki jamiyat oldida katta ijtimoiy vazifani bajaradi, chunki maktabgacha yoshdagi tarbiya kelajak jamiyatining sifatini belgilaydi. Zamonaviy pedagogning imiji uning tashqi ko'rinishi emas, balki shaxsiy fazilatlarini, odobi va kasbiy mahorati uyg'unligidir. Tarbiyachi bolaga nafaqat bilim beradi, balki uni inson sifatida shakllantiradi. Shu bois tarbiyachi kasbi eng mas'uliyatli va jamiyat uchun muhim kasblardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tasviriy faoliyat (rasm chizish, bo'yash, applikatsiya, loy ishi va boshqalar) muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining pedagogik mahorati, metodik yondashuvi va shaxsiy namunasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur masala pedagogika va psixologiya sohasidagi ko'plab olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bola faoliyatida kattalar, xususan, tarbiyachining rahbarlik roli alohida ta'kidlanadi. Olimning fikricha, bolaning ijodiy qobiliyatlari mustaqil ravishda emas, balki kattalar bilan hamkorlikda, maqsadli tashkil etilgan ta'lim jarayonida rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy faoliyatni tashkil etishda tarbiyachi bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni hisobga olgan holda yo'l-yo'riq berishi zarur.

N.A. Vetlugina o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U tasviriy faoliyat bolalarda nafaqat badiiy ko'nikmalarni, balki hissiy idrok, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirishini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, tarbiyachi bolalarning erkin ijod qilishi uchun qulay muhit yaratib, ularni rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolni bajarishi lozim.

T.A. Komarova tasviriy faoliyatni o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ishlarida tarbiyachining metodik tayyorgarligiga katta ahamiyat beradi. Olimning fikricha, bolalarni rasm chizishga o'rgatishda faqat natija emas, balki jarayonning o'zi ham muhim bo'lib, tarbiyachi bolaning har bir harakatini to'g'ri yo'naltirishi hamda uning mustaqil fikrlashini cheklamasligi kerak.

O'zbek pedagog olimlari, jumladan, R.M. Qodirova, N.Sh. Abdullaeva va boshqalarning ishlarida ham maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat orqali bolalarni ijodiy rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va xalq amaliy san'ati elementlarini tasviriy mashg'ulotlarga kiritish orqali bolalarning qiziqishini oshirishda tarbiyachining o'rni alohida ta'kidlanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonida tarbiyachi tashkilotchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, rag'batlantiruvchi va ijodiy hamkor sifatida ishtirok etadi. Tarbiyachining kasbiy mahorati va ijodiy yondashuvi bolalarning badiiy qobiliyatlari rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati mashg'ulotni metodik jihatdan to'g'ri rejalashtirishda, bolalar yoshiga mos mavzu va materiallarni tanlashda, turli usullardan (bo'yoq, qalam, plastilin, kollaj, noan'anaviy texnikalar) foydalanib ijodkorlikni rivojlantirishda, bolaning individual qobiliyatini ko'ra olish va uni qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi. Tarbiyachining mahorati, avvalo, mashg'ulotni puxta rejalashtirishdan boshlanadi. Har bir tasviriy faoliyat mashg'uloti bolalar yoshiga mos, bosqichma-bosqich va aniq metodik asosda qurilishi lozim. Rejalashtirishda mavzu, maqsad, vazifalar, vositalar va kutilayotgan natijalar aniq belgilanadi. Mashg'ulot jarayoni oddiydan murakkabga qarab rivojlanishi, bolaga bosqichma-bosqich ko'nikmalar berilishi zarur. Rejada mashg'ulotning kirish, asosiy va yakuniy qismlari ajratilib, har bir bosqichda bolalarning faol ishtiroki ta'minlanadi.

Bolalar yoshiga mos mavzu va materiallarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi juda muhim. Masalan:

- kichik guruh (3-4 yosh) uchun oddiy shakllar (doira, chiziqlar, rangli dog'lar), katta predmetlarni rasm qilish va yumshoq ranglardan foydalanish tavsiya etiladi; o'rta guruh (4-5 yosh) uchun predmetli rasm (mevalar, gullar, oddiy hayvonlar), ranglarni ajratish va chiziqlarni uyg'unlashtirish muhim;
- katta guruh (5-6 yosh) uchun kompozitsiya tuzish, syujetli rasm (oilaviy manzara, tabiat, transport), rang uyg'unligini mustaqil tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur;



- tayyorgarlik guruhi (6-7 yosh) uchun badiiy tasvir, milliy naqshlar va ijodiy mustaqillikni rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuningdek, materiallar (qalam, rangli qog'oz, bo'yoq, plastilin, loy) ham bolalarning yoshiga va qobiliyatiga mos ravishda tanlanadi.

Tasviriy faoliyatda tarbiyachi metod va texnikalarni turlicha qo'llashi lozim, bu bolalarda qiziqish uyg'otadi va ijodkorlikni rag'batlantiradi.

An'anaviy usullar – qalam, bo'yoq, akvarel, guash bilan rasm chizish; hajmli tasvir – plastilin, loy, qog'oz buklash (origami), konstruktiv ishlar; noan'anaviy texnikalar – barmoq bilan bo'yash, tamg'a (pechat) usuli, ip bilan bo'yash, qumda rasm chizish, kollaj (turli materiallarni birlashtirish) bolalarning erkin fikrlashini, fantaziya qilishini, qo'l motorikasini rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatini kengaytiradi. Tarbiyachining samimiyligi va mehribonligi bolaning ishonchini oshiradi. Nazokatli yondashuv bolani tanqid qilish o'rniga rag'batlantirish, bolaga shaxs sifatida yondashish va uning qadr-qimmatini hurmat qilish bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bola juda sezgir va mehrga tashna bo'ladi, shuning uchun tarbiyachining samimiy so'zlari, mehribon qarashlari va xushmuomalasi bolada ishonch uyg'otadi.

Agar tarbiyachi bolaga samimiy yondashsa, bola o'zini erkin his qiladi, qo'rquvdan xoli bo'ladi. Mehribon tarbiyachi bolaga nafaqat bilim beradi, balki unga psixologik tayanch ham bo'ladi. Samimiylik orqali bola tarbiyachini yaqin inson sifatida qabul qiladi va uni tinglashga, o'rnak olishga moyil bo'ladi. Shu bois tarbiyachining eng muhim quroli uning mehribon yuragi va samimiy munosabatidir. Tarbiyachi bolaga qo'pol yoki keskin tanqid bilan emas, balki yumshoq va nazokatli yondashishi kerak. Bola xato qilganda uni keskin koyish emas, balki to'g'ri yo'l ko'rsatish muhim. "Sen noto'g'ri qilding" deyish o'rniga "Keling, buni boshqa usulda qilib ko'ramiz" deyish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirmaydi. Rag'batlantirish eng kuchli tarbiyaviy vositadir. Oddiy "Barakalla!", "Ajoyib rasm!", "Zo'r urinibsani!" kabi so'zlar bolaning ijodiy qiziqishini yanada oshiradi. Nazokatli yondashuv bolaning qalbini og'ritmaydi, aksincha, uni mustaqillikka va o'ziga ishonch bilan harakat qilishga undaydi. Har bir bola o'ziga xos shaxsdir, shuning uchun tarbiyachi bolaga shunchaki tarbiya obyekti sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan va his qiladigan inson sifatida qarashi zarur.

Bola kichik bo'lsa ham, uning fikri va his-tuyg'ulari qadrlanishi lozim. Insonparvar tarbiyachi bolaning huquqlarini hurmat qiladi, uni kamsitmaydi va doimo qo'llab-quvvatlaydi. Bolaga o'z fikrini aytish, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish insonparvarlikning asosiy belgilaridan biridir. Shaxs sifatida qadrlangan bola keyinchalik jamiyatda ham o'zini erkin va mas'uliyatli tutadi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik tarbiyachining kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim fazilatlardir. Samimiylik bolada ishonch uyg'otadi, nazokatli yondashuv uni rag'batlantiradi, insonparvarlik esa bolani haqiqiy shaxs sifatida qadrlashga imkon beradi. Bu uchlik uyg'unlashganda ta'lim-tarbiya jarayoni samarali bo'ladi va bolalar o'zlarini baxtli his etadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy tarbiyachi o'z kasbida muvaffaqiyat qozonishi uchun quyidagi keng ko'lamli kasbiy bilimlarga ega bo'lishi zarur:

- mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish, turli metod va usullardan foydalanish, ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish;
- bolalarning yosh xususiyatlari, individual xarakteri va qiziqishlarini bilish, ularning psixik rivojlanishini nazorat qilish;
- ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini o'zlashtirish, didaktik tamoyillarga amal qilish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish.

Kasbiy kompetensiyaga ega tarbiyachi mashg'ulotlarda to'g'ri yondashuvni tanlay oladi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi va bolaning rivojlanishini to'g'ri yo'naltira oladi. Tarbiyachi nafaqat kasbiy bilimga, balki shaxsiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim, chunki bolalar tarbiyachidan faqat bilim emas, balki insoniy fazilatlarni ham o'rganadi:

- yangi g'oya va usullarni qo'llash, bolalarning qiziqishini oshirish;
- bolalarning turli xarakteri va kayfiyatini to'g'ri qabul qilish, ularni shoshirmay bosqichma-bosqich yo'naltirish;
- barcha bolalarga teng munosabatda bo'lish, hech kimni kamsitmaslik, barchaga bir xil imkoniyat yaratish;
- bolalarga doimo samimiy munosabatda bo'lish, ularga mehr bilan qarash.

Shaxsiy kompetensiya tarbiyachini bolalar uchun nafaqat pedagog, balki yaqin do'st va ishonchli inson sifatida ko'rsatadi.

Tarbiyachi umumiy madaniy saviyaga ega bo'lishi ham zarur, chunki u bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularning dunyoqarashini ham shakllantiradi:

- estetik did – ranglar uyg'unligini ko'ra olish, go'zallikni qadrlash, san'at asarlaridan zavqlanish;
- san'atni qadrlash – tasviriy san'at, musiqa, adabiyot va teatrni bilish hamda bolalarga tanishtirish;
- madaniyatni hurmat qilish – milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, xalq an'analarini bolalar ongiga singdirish.

Umummadaniy kompetensiyaga ega tarbiyachi bolalarning estetik qiziqishini oshiradi, ularda san'at va madaniyatga muhabbat uyg'otadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari samarali bo'lishi uchun tarbiyachi maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- rasm chizish texnikalari – qalam, bo'yoq, akvarel, guash, rangli qog'oz bilan ishlash;
- haykaltaroshlik va modellashtirish – plastilin, loy, karton, tabiiy materiallardan foydalanish;
- noan'anaviy texnikalar – barmoq bo'yoqlari, kollaj, qumda rasm chizish, ip bilan bo'yash, pechat (tamg'a) texnikasi;
- bolaga o'rgatish – mashg'ulot jarayonida texnikani ko'rsatib berish, bosqichma-bosqich yo'naltirish va bolani mustaqil ishlashga rag'batlantirish.

Maxsus kompetensiyaga ega tarbiyachi bolalarda ijodkorlikni rivojlantira oladi, ularni turli badiiy faoliyatga qiziqtiradi va estetik dunyoqarashini kengaytiradi.

Tarbiyachining kompetensiyaviy xususiyatlari – bu uning kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus bilim hamda ko'nikmalari yig'indisidir. Bu kompetensiyalar uyg'un bo'lsa, tarbiyachi o'z faoliyatini samarali amalga oshiradi, bolalar esa har tomonlama rivojlanadi. Tarbiyachining kiyinish madaniyati, nutqi va ohangdorligi bolaning estetik didiga ta'sir qiladi:

- pedagogik texnika – ovozdan to'g'ri foydalanish, imo-ishora, yuz ifodasi, ko'rgazmali vositalardan foydalanish;
- tashqi ko'rinish – bolaga namuna, ichki madaniyatning aksidir.

Tarbiyachi bolalar uchun doimiy namuna bo'lib, uning tashqi ko'rinishi, kiyinish uslubi va nutq madaniyati bevosita bolalarning estetik dunyoqarashiga ta'sir qiladi, shu orqali bola estetik didni, odobli so'zlash va ozoda bo'lish madaniyatini tarbiyachidan o'rganadi. Tarbiyachining pedagogik texnikasi uning dars jarayonida qo'llaydigan ta'sirchan usullaridir:

- ovozdan foydalanish – kerakli joyda ovozni pasaytirish, zarur paytda kuchaytirish, ohang orqali bolalarni jalb qilish, masalan, ertak aytishda ovozni pasaytirib sirli kayfiyat yaratish yoki quvonchli vaziyatda ko'tarinki ohangdan foydalanish;
- imo-ishora va pantomimika – qo'l harakatlari, tana tili, qo'lni keng ochib ko'rsatish yoki barmoq bilan ishora qilish bolalar uchun tushunarli bo'ladi va darsni qiziqarli qiladi;
- yuz ifodasi – tabassum, ajablanish, quvonch yoki jiddiylik bolalarda hissiy kechinmalar uyg'otadi va e'tiborini tortadi;
- ko'rgazmali vositalar – suratlar, o'yinchoqlar, tabiatdan olingan narsalar, texnologik vositalar (slayd, video) bolaning ko'rish orqali o'rganishini yengillashtiradi va eslab qolishini osonlashtiradi.

Pedagogik texnika mashg'ulotni jonli, ta'sirchan va samarali qiladi. Tarbiyachining tashqi ko'rinishi uning ichki dunyosining ko'zgusi bo'lib, ozodaligi, tartib-intizomi va o'zini tutishi bolalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- namuna sifatida bola tarbiyachining tashqi ko'rinishidan "ozoda bo'lish", "saranjomlik", "go'zallikka intilish" odatlarini o'zlashtiradi;
- ichki madaniyat aks etadi – tarbiyachining o'zini tutishi, suhbatlashish uslubi va odobi uning ichki madaniyatini ko'rsatadi, masalan, ozoda kiyim va samimiy tabassum bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- psixologik muhit – tarbiyachining tartibli ko'rinishi va madaniyatli.



XULOSA

Tarbiyachi bolalarni tasviriy faoliyatga jalb etuvchi, ijodkorlikka yo'naltiruvchi asosiy shaxsdir. Uning bilimdonligi, mahorati, samimiyligi va madaniyati bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Tashqi ko'rinish va pedagogik texnika tarbiyachining ta'sirchan vositalaridan biridir. Kiyinish madaniyati, nutqi va ohangdorligi bolalarda estetik didni shakllantiradi, pedagogik texnika esa mashg'ulotni jonli va qiziqarli qiladi. Tashqi ko'rinish ichki madaniyatning aksidir hamda bolalar uchun doimiy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov B. X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarni shakllantirish tizimi. – T.: Fan, 2005. – 14 bet.
2. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. diss. avtoreferat. – T., 2007. – 132 bet.
3. Khasanova S. T., Vasila T. Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession // Next Scientists Conferences. – 2023, May. – Pp. 84-91.
4. Khasanova S., Zufarova L. Development of communicative skills in pre-school children through theater games // International Scientific and Current Research Conferences. – 2023, June. – Pp. 1-5.
5. Khasanova S. Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan // *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Vol. 11(2). – Pp. 734-738.
6. Хасанова Ш. Организация развивающего образовательного пространства как фактор готовности ребенка к школе // *Science and Innovation*. – 2022. – 1(B8). – С. 2199-2203.
7. Poddyakov N. N. *Tvorcheskoe razvitie doshkolnikov v usloviyakh obrazovatelnoy sredy*. – Moskva: Pedagogika, 2010. – 192 s.
8. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.